

RAQAMLASHTIRISH ORQALI MAKTABLARDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING O'QITILISHIDA AFZALLIKLAR

*Narzullayeva Masuda Faxriddin qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi
narzullayevamasuda75@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi dolzarb mavzu hisoblangan mumtoz adabiyotimiz durdonalarini maktablarda qaysi usul va rejalar orqali o'qitishdagi afzalliklar haqida mushohada etiladi. Mazkur maqolada Navoiyshunos olimlarning asarlaridan iqtoboslar olinib, tahlil etilgan. Bundan tashqari maktab yoshidan Navoiy ijod yo'li va uning ijodini teran anglash yoshlarimiz tarbiyasida yetakchi omillardan biri ekanligi haqida fikr yuritiladi. Maqolada maktab adabiyot darsliklaridagi ba'zi kamchiliklari aytib o'tilgan va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Navoiy merosi, raqamlashtirish, estetik tafakkur, badiiy so'z, ko'nikma, adabiy ta'lim, zamonaviy texnologiyalar.

ALISHER NAVOI'NIN ESERLERININ OKULLARDA DİJİTALLEŞTİRİLMESİ YOLUYLA ÖĞRETİLMESİNİN ÖZELLİKLERİ

*Narzullaeva Masuda Fakhreddin kızı,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi*

Özet. Bu makale, günümüzün güncel konusu olan klasik edebiyatımızın başyapıtlarının okullarda hangi yöntemler ve planlar aracılığıyla öğretilmesinin avantajlarını ele almaktadır. Bu makalede, Navoi bilimcilerinin eserlerinden alıntılar alınmış ve analiz edilmiştir. Ayrıca, okul çağından itibaren Navoi'nin yaratıcı yolunun ve eserlerinin derinlemesine anlaşılmasının gençlerimizin eğitiminde öncü faktörlerden biri olduğu düşünülmektedir. Makalede, okul edebiyat ders kitaplarındaki bazı eksiklikler belirtildi ve öneriler verildi.

Anahtar kelimeler. Navoi mirası, dijitalleşme, estetik düşünme, sanatsal söz, beceri, edebi eğitim, modern teknolojiler.

ПРЕИМУЩЕСТВА ПРЕПОДАВАНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЛИШЕРА НАВОИ В ШКОЛАХ ПУТЕМ ЦИФРОВИЗАЦИИ

*Нарзуллаева Масуда Фахриддин кизи,
студентка Узбекско-Финского педагогического института*

Аннотация. В данной статье рассматриваются преимущества преподавания шедевров классической литературы, которые являются сегодня актуальной темой, в школах, посредством которых используются методы и планы. В данной статье взяты и проанализированы цитаты из работ навоийских учёных. Кроме того, считается, что глубокое понимание творческого пути Навои, его творчества со школьного возраста является одним из ведущих факторов воспитания нашей молодежи. В статье отмечены некоторые недостатки школьных учебников по литературе и даны рекомендации.

Ключевые слова. Наследие Навои, цифровизация, эстетическое мышление, художественное слово, мастерство, литературное образование, современные технологии.

ADVANTAGES IN TEACHING ALISHER NAVOI'S WORKS IN SCHOOLS THROUGH DIGITALIZATION

Narzullaeva Masuda Fakhreddin kizi

student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Abstract. *This article discusses the advantages of teaching the masterpieces of classical literature, which are a topical topic today, in schools. This article analyzes and quotes from the works of Navoi scholars. In addition, it is considered that a deep understanding of Navoi's creative path and his work from school age is one of the leading factors in the education of our youth. The article highlights some shortcomings in school literature textbooks and gives recommendations.*

Keywords. *Navoi's heritage, digitization, aesthetic thinking, artistic word, skills, literary education, modern technologies.*

O'zbek xalqining mutafakkiri shoiri Alisher Navoiy sharq adabiyoti doirasiga turkiy xalqlar adabiyotining buyuk vakili sifatida kirib kelgan. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlagandek: "Navoiy ijodi tarbiyaviy xulq atvor va diniy bilimlar ulashgan qomusiy olim desak mubolag'a bo'lmaydi". [1,56 b.] Shuning uchun bugun globallashuv davrida yoshlar ongiga Navoiy ijodini singdirishda zamonaviy ped texnologiyalardan foydalanishimiz kerakligini talab qilmoqda.

Alisher Navoiy asarlari o'zbek adabiy tili va milliy adabiyotimiz rivojining asosini belgilab beribgina qolmay, xalqimiz ma'naviy olamining shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hazrat Navoiy merosini o'rganish har bir insonni ilhomlantirib, aqlini teran, fikrini tiniqlashtiradi, tafakkurini yuksaltiradi. Har bir inson kamol topishi uchun, albatta, Navoiy asarlari shuning bilan bir qatorda lirikasidan ham yaxshigina xabardor bo'lishi kerak. Biz bugungi rivojlanayotgan zamonda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda maktab o'quvchilarini Navoiy ijodi bilan to'laonligicha tanishtirishimiz lozim. Biz bilamizki, maktab o'quvchilari orasida mumtoz adabiy asarlari va ijodkorlari hayotiga qiziqish, o'rganishida qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.

XX asrdagi navoiyshunoslik o'z ko'lamining kengligi va bosib o'tgan yo'lning o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Bu o'ziga xoslik shundan iboratki XX asrning 20-80 -yillarida O'zbekistonda hamda MDH mamlakatlarida Alisher Navoiy hayoti va merosini o'rganishda sho'rolar siyosati o'z ta'sirini o'tkazdi. Shunday bo'lsa-da, Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va merosini o'rganish, uning 500 yillik (1948), 525 yillik (1968), 550 (1991) yubleylarini o'tkazish; asarlarini (1948-yilda 3 tomlik, 1968-yilda 15 tomlik), ularning ilmiy-tanqidiy matnlarini ("Majolis un-nafois", "Liston ut-tayr", "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", „Mezon ul-avzon“) nashr etish, doktorlik (A.Sa'diy, A.Hayitmetov, H.Sulaymon, A.Abdug'afurov, S.Erkinov, N.Mallaev, M.Hakimov va boshqalar), nomzodlik disertatsiyalarini himoya qilish, turli mavzularda monografiya va ilmiy maqolalar to'plamlarini nashr etish davom etdi [3,78 b.]. Navoiyshunoslik bo'yicha ilmiy ish qilgan olimlarimizning son sanog'i yo'q desak xato bo'lmaydi. 1991-yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, navoiyshunoslikda ham yangi davr boshlandi. Chunki bu davrda milliy istiqlol g'oyasi talablari asosida xalq va mamlakat tarixi, qadriyatlar, boy ilmiy-adabiy merosiga xolisona va ilmiy asosda o'rganish va yoritishga yangi ufqlarni ochib beradi.

Odatda har bir ijodkor qalbini maftun etgan soh va siymolar, mavzu va muammolar bo'ladi. Dildan joy olgan ana o'sha mavzu u yoki bu istedod sohibi faoliyatida markaziy o'q funksiyasini ado etadi. Yer o'z o'q atrofida aylangani kabi o'sha olim va yoki shoir ham o'zi sevgan mavzudan sira uzoqlashib ketolmaydi. Har gal unga murojaat etganda, uning yangi bir qirrasini ilg'ab olish, noma'lum nuqtalarini kashf etishga intiladi. Shu yo'sinda yangi-yangi asarlar tug'iladi. Muxtor Avezov umr bo'yi Abay siymosini ko'z o'ngidan uzoqlashtirmagan. Huddi shunday Oybek so'nggi nafasigacha Alisher Navoiy haqida yozishni tark etmadi. Komil Yashin esa hamon Xamza haqida o'ylaydi. Sadridin Ayniy Navoiyni "Navoiy dahosi – ilhom manbayi", – deb bejizga aytmagan [3, 98 b.].

Bugun Navoiy asarlarini har tomonlama tadqiq etishda raqamlashtirish texnologiyalaridan va turli xil xronologik jadvallar tuzish orqali, yangi pedtexnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi.

Adabiyot o'qitish metodikasi ta'lim jarayonida Navoiy asarlarini o'qitishda qo'llaniladigan usul va qoidalarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu metodik raqamlashtirish texnologiyalari o'quvchilarga asarlarni chuqur tahlil qilish va anglashda yordam beradi. Uning o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat bilim berishga, balki talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga ham qaratilgan. Metodikani o'rganish, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi interaktivlikni oshiradi va adabiyotga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Janr badiiy tizim ustqurtmasi tevaragida mustaqil harakatlanuvchi, lekin undan aslo uzilib ketmaydigan umum yaxlitlikning qismidir. Mustaqil harakatlanuvchi qism – janr, albatta, sifat o'zgarishlariga uchrashi tabiiy. Lekin bu o'zgarishlar ichki evolyutsiya tarzida kechadi.

Mavzuyimiz obyekti Alisher Navoiy ijodi mumtoz adabiyotimizning ushbu qonuniyatlari, badiiy tizim an'analarini qamrab olgan, o'z qarashlari va iste'dodi darajasida uni qayta jonlantirgan ijoddir [4,103 b.]. U o'z devoniga bir necha janrga oid asarlarni kiritgan. Diqqatga sazovor jihati shundaki, ushbu devonlarda aks etgan asarlar shoirning arab, fors va turkiy she'riyat tajribalaridan shunchaki foydalanib yozilgan emas. Maktab darsliklariga kiritilgan Navoiy asarlarini O'quvchilarga yetkazishda bir qancha qiyinchiliklarning kelib chiqishi aynan shu janrning murakkab namunalarini yaratganligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mutafakkir daho Alisher Navoiy o'zidan keyin adabiyot bo'stoniga qadam qo'ygan har bir ijodkorni betimsol badiiy ijod mahsullari vositasi bilan tarbiyalaydi. Shunday ekan Navoiyning tarbiya va etikasi singdirilgan asarlarini chuqurroq tahlil qilish va yosh avlodga yetkazib berish bugungi kundagi ustuvor vazifalarimizdan biridi. Bu borada raqamlashtirish texnologiyalarini to'g'ri qo'llagan holda rejali yondashilsa, adabiyot fani oldida turgan ko'pgina masalalar hal etiladi. Buning uchun adabiyot o'qituvchilaridan ham, fan bo'yicha, ham texnika vositalaridan foydalanish bilimini mustahkam bo'lishini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston. 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва форовон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
3. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси («Хазойинул маоний» асосида). – Тошкент: Фан, 1983. – 168 б. 19-бет.
4. Muhiddinov M.Q. Adabiy an'ana va ijodiy o'ziga xoslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 1990. 105-b.
5. Хайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. – Т.: Фан, 1970. – Б. 11
6. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 240 б.